

## XITOY BUDDAVIYLIGI DINIY-FALSAFIY TA'LIMOTI SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Mamatkulova Nilufar Xusanovna, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil tadqiqotchisi*



### CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF THE RELIGIOUS PHILOSOPHICAL DOCTRINE OF CHINESE BUDDHISM

*Mamatkulova Nilufar Husanovna, independent researcher of Tashkent State University of Oriental Studies*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Buddaviylik ta'lomoti va uning Xitoya kirib kelish sabablari, omillari ko'rsatib berilgan. Buddaviylik kosmologiyasi va Xitoy an'anaviy kosmologiyasining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Qiyosiy tahlil buddaviylik ta'lomoti hamda Xitoy tafakkuridagi ontologik qarashlar asosida amalga oshirilgan. Shuningdek, tadqiqotda Xitoy Buddaviylicha ta'lomoti shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** Buddaviylik, Dharma, Markaziy Osiyo, Buyuk ipak yo'li, kosmologiyasi, karma, sansara, Xitoy kosmologiyasi, naturalizm, Bodxi (uyg'onish, nurlanish), dao (yo'l, oliy haqiqat), nirvana, – u vey (faoliyatsizlik).

**Abstract:** This article shows the reasons and factors of Buddhism and its entry into China. A comparative analysis of Buddhist cosmology and traditional Chinese cosmology was carried out. The comparative analysis was carried out on the basis of Buddhist teachings and ontological views of Chinese thought. Also, the study discussed the specific features of the formation of Chinese Buddhism.

**Key words:** Buddhism, Dharma, Central Asia, Great Silk Road, cosmology, karma, samsara, Chinese cosmology, naturalism, Bodhi (awakening, enlightenment), dao (path, supreme truth), nirvana, – u wei (inactivity).

### KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

**K**irish Buddaviylik Xitoya milodiy I asrda kirib kela boshladi. Dharma Buddanining Samoning Markaziy Davlatiga kirib kelishiga bag'ishlangan afsona bor. Milodiy 56-yilda xan sulolasidan bo'lgan imperator Min-dining tushiga oltin rang nur taratayotgan bir avliyo kiribdi. Tongda imperator o'zining donish-mand amaldorlarini yig'ib, ulardan bu avliyoning kimligini izohlashni so'rabdi. Hamma tushning ta'birini bilmay turgan vaqtda, bir donishmand shunday debdi: "Kamina qulingiz G'arbda ilohiy zot (shen) borligini eshitganman, uning ismi Budda ekan. Aynan shu ilohiy zot tushingizga kirgan". Shunda imperator G'arbiy O'lkalarga (si yuy – Markaziy Osiyo) elchilarni jo'natibdi, elchi-lar bir qancha vaqtadan keyin oq otda buddaviylik matnlari va muqaddas tasvirlarini olib kelibdi. Ushbu otni esa ikki rohib Dxarmaratna va Kashya-pamatanga kuzatib kelgan ekan. Imperiya poytaxti – Loyan shahrida rohiblarga hurmat ko'rsatilibdi va tez orada bu yerda birinchi buddaviylik monastiri – Oq Ot monastiri qad ko'taribdi [1].

Albatta, yuqorida qayd qilingan hodisa afsona, uni aynan qabul qilmaslik kerak. Xitoyda ilk monastirlar (shu jumladan Loyanda ham) bir oz keyinroq – milodiy III asrdan avvalroq paydo bo‘lganiga hech qanday shubha yo‘q. Lekin ushbu afsona Xitoya buddaviylikning kirib kelish vaqtini – milodiy I asrni to‘g‘ri ko‘rsatgan. Bundan tashqari, mahalliy Chu podshohi In (Lyu In)ning maktubi matni saqlanib qolgan, ushub maktub milodiy 65-yil yozilgan. Unda podshoh In buddaviylikning uch atamasi keltirilgan – upasaka (buddaviylik qavmi a’zosi), Buddha va shramana. Afsonada aks etgan yana bir muhim tarixiy hodisa – buddaviylikning Xitoya Markaziy Osiyodan kirib kelishi hisoblanadi [2].

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)**

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillardan foydalanildi.

## **MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)**

Buddaviylikning Xitoya tarqalishi murakkab tarixiy sharoit tufayligina ro‘y berdi. Birinchidan, Aleksandr Makedonskiy istilolari natijasida o‘sha vaqtida forsiyzabon aholi yashagan Markaziy Osiyo bilan Hindiston mintaqalari o‘rtasida uzviy savdo aloqalari o‘rnatilgan, buddaviylik esa, o‘sha vaqtadan Markaziy Osiyo hududlariga tarqala boshlagan. Ikkinchidan, xan imperatori U-di (m.avv. 140-87-yillar) boshqaruvi vaqtida G‘arbiy O‘lkalarga istilochilik yurishlari uysushtirilgan va bu yerdagi ba‘zi davlatlar xan imperiyasiga tobelligini tan olgan. Natijada, Xitoy va Markaziy Osiyo o‘rtasida uzviy aloqalar o‘rnatildi. Shu tarzda Xitoyni Markaziy Osiyo orqali (o‘zi uchun foydali vositachilik vazifalarini bajargan) O‘rta Yer dengizining sharqiy sohillari bilan bir tomonidan va Hindiston bilan boshqa tomonidan bog‘lagan mashhur Buyuk Ipak yo‘li shakllandi. Savdogarlarning karvonlari doimiy ravishda Xan imperiyasi poytaxtidan Farg‘onaga, Xo‘tanga va So‘g‘dga tomon yo‘l olishgan, yo‘lda esa, ularga qarama-qarshi tomonidan Xitoya savdogar karvonlari kelar edi. Buyuk Ipak yo‘lida mahsulotlar bilan birga g‘oyalar ham olib kelinar edi, bu bilan avvaldan mavjud bo‘lgan ibora – “Savdo – taraqqiyot dvigateli” iborasi isbotlangan.

Bir necha asrlar mobaynida Xitoyda buddaviylikdan ta’lim va targ‘ibotni hind rohiblari emas, balki Xo‘tan yoki So‘g‘d rohiblari olib borishgan (ko‘plab Parfiya va Baqtriyadan chiqqan rohiblar) va bu holat, shubhasiz, Xitoyda shakllanayotgan buddaviylik an’alarining xarakteriga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Xitoyda shakllangan buddaviylikning ilk markazlari aynan Buyuk Ipak yo‘li tugagan shaharlar bilan mos keladi. Avvalo bu poytaxt – Loyan shahri va Penchen shaharlaridir [3].

Buddaviylikning Xitoya kirib kelishining boshqa yo‘li ham bo‘lib, u ham savdo yo‘llari bilan bog‘liq. Bu yo‘l Shimoliy Vietnamdan (u vaqtida xitoyning Szochji yoki Szyaochjou muzofotlari) Xitoyning hozirgi Guandun muzofoti orqali shimolga tomon davom etar edi. Bu muhim savdo yo‘li Janubiy Xitoyni XV asrgacha zamonaviy Janubiy Vietnam hududida joylashgan hinduiylarning Tampa davlati bilan, shuningdek, Hindiston va janubiy dengizlarning boshqa davlatlari bilan bog‘lagan. Bu yo‘ldan ham Xitoya Markaziy Osiyolik rohiblarning kelganligi juda ham qiziqarli fakt hisoblanadi. Xitoyning janubida III asr ikkinchi yarmida kelib chiqishi so‘g‘dlik rohib Kan Senxuey buddaviylik targ‘iboti bilan shug‘ullangan, u ham Xitoya janubiy yo‘l orqali kirib kelgan [4].

Buddaviylik ilk marta Xitoyning shimoliy-g‘arbiy va janubiy hududlarida tarqalagan, mamlakatning sharqiy va markaziy qtsmiga buddaviylikning tarqalishi keyinroq ro‘y beradi.

## **NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)**

III asrgacha Xitoyda xitoylik rohiblar va buddaviylik monastirlari bo‘limganligi diqqatga sazovordir. Buddaviylik xitoyliklar uchun kam tushuniladigan ekzotik ta’limot sifatida, aksariyat holatlarda esa, daosizmning bir yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘lar edi. Bu holatni quyidagi tarixiy fakt bilan isbotlash mumkin: imperator Xuan-di 165-yilda dasosizmning asoschisi Laotszi sharafiga va Buddaga bag‘ishlab qurbanlik keltiradi. Buddha sharafiga qurbanlik keltirilishining o‘zi o‘sha vaqtida xitoyliklarning buddaviylikni naqadar sayoz tushunganliklaridan dalolat beradi. Milodiy uchinchi asr – Xitoyda Buddaviylik tarixining burilish asri hisoblanadi. Aynan ushbu asr mobaynida buddaviylikning Dunyoning Markaziy davlatidagi taqdiri hal bo‘ldi.

Xitoyda buddaviyliknng tarqalishida davlatning ahamiyati deyarli o‘rnii bo‘lmadi. Faqat

Tibet bundan mustasno. Muayyan vaqtgacha hokimiyat vakillari buddaviylikka ahamiyat berishmadi. Buddaviylik matnlarini xitoy tiliga tarjima qilishda ham muayyan tizim yoki reja mavjud bo‘lmagan. Har bir rohib o‘z ixtiyorida mavjud matnlar bilan ish olib borganligi uchun dastlabki xitoylik buddaviyolar o‘zlarining Buddaviylik haqidagi qarashlarini turli qismlardan iborat tarjimalar asosida shakllantirishgan. Buddaviylik matnlarini xitoy tiliga muntazam ravishda tizimli tarjima qilish ishlarini faqat II asr oxirida kuzatamiz. Bu tarjimaning kelib chiqishi Parfiyalik bo‘lgan, An Shigao – xitoycha ism bilan mashhur bo‘lgan rohib amalga oshirgan. An Shigao buddaviylikni 148-172-yillar oralig‘ida mamlakatning markaziy qismida targ‘ib qilganligi ma’lum [5]. An Shigao Parfiya shohining qarindoshi bo‘lgan ekan. U xitoy tiliga qirqdan ortiq turli buddaviylik matnlarini tarjima qilgan, uning tarjima qilgan matnlari, asosan, buddaviylikning xinayana yo‘nalishiga mansub bo‘lgan. Bundan tashqari II asr oxirida Loyan shahrida buddaviylik tarjimalari ustidan o‘ndan ortiq ajnabiylar rohiblar faoliyat olib borishgan.

Tarjima muammosi Xitoyda buddaviylik an’analaring xususiyatlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Xitoy tili ham, tibet tili ham sanskritdan juda katta farqlarga ega. Lekin xitoy iyeroglf yozuvlari so‘zning talaffuz ohangini anglatmasdan, uning mohiyatini anglatishi tarjimonlarning ishida favqulodda murakkab holatlarni keltirib chiqargan. Bundan tashqari, xitoy madaniyati o‘zining ikki ming yillik tarixi mobaynida daosizm va konfutsiylik kabi ta’limotlar vositasida barcha munosabatlarda buddaviylikdan farqli bo‘lgan falsafiy atamashunoslikning murakkab tizimini ishlab chiqqan edi [6].

Dastlab tarjimonlar buddaviylik diniy doktrinasi tushunchalarini an’anaviy xitoy falsafasi tushunchalari yordamida izohlashga harakat qilishdi. Masalan: Bodxi (uyg‘onish, nurlanish) tushunchasini – dao (yo‘l, oliy haqiqat) tushunchasi bilan, nirvana tushunchasini – u vey (faoliyatsizlik) tushunchalari orqali izohlashgan. Lekin bunday tarjima atamalarning dastlabki ma’nolarini o‘zgartirgan, yolg‘on aloqadorlik o‘rnatgan, buddaviylik ta’limotining mohiyatini mos ravishda ochib bera olmagan. Shuning uchun Xitoyda dastlabki buddaviylik tafakkuri kuchli tarzda

xitoylashtirilganligi bilan ajralib turadi va aniqroq tavsiflaydigan bo‘lsak, kuchli tarzda daoslashtirilgan ko‘rinishga ega bo‘lgan. Bunday xitoylashtirishni buddaviylik matnlarining ilk tarjimalarining nomlaridan yaqqol sezish mumkin. “Ashtasaxasrika prajnya-paramita sutra”ning (prajiya-paramit sutrasining Xitoyda tarjima qilinishi II asrning oxirida boshlangan) III asrdagi tarjimalaridan birida ushbu sutra xitoycha, “*Dao sin szin*”, ya’ni “*Dao yo‘lini amalaga oshirishning qonuni*” deb nomlangan. Buddaviylikning Xitoyga tarqalishining ilk bosqichlarida tizimli falsafiy matnlar (shastrlar) tarjima qilinmagan, balki faqat sutralargina, ular ham yaxshi ishlab chiqilgan tizimli va ketma-ketlikda emas, balki tartiibsiz ravishda tarjima qilingan. Oqibatda, Xitoydagagi ilk buddaviylik an’analari hind buddaviyligi ta’limotlaridan sezilarli darajada farq qilgan. Shu o‘rinda boshqa bir jihatga ham e’tibor berish lozim, ya’ni Xitoyda buddaviylik an’analari tarqalayotgan dastlabki davrda Hindistonda Buddaviylik ta’limotining shakllanish jarayoni endigina yakunlanish fazasiga kirgan edi. Lekin, bu holatda tibetliklar qanday qilib buddaviylikning maxayana yo‘nalishini shakllangan tizim shaklida qabul qilganligi diqqatga sazovordir [7].

Kumarajivaning sa’yi harakatlari bilan buddaviylik matnlarini xitoy tiliga tarjima qilishda ulkan yutuqlarga erishildi. Kumarajiva tarjima ishlari bilan 401-413 yillar oralig‘ida shug‘ullangan. Kumaradiva tarjima jarayonida “mohiyatlarni tanlash” (ge i) tamoyilini ilgari surdi. Unga ko‘ra, an’anaviy xitoy falsafasining tushunchalaridan foydalanish cheklandi, hind atamasiga etimologik va semantik tamoyillar asosida mos keluvchi maxsus so‘zlar yordamida yangi so‘zlar (neologizmlar) yaratildi. Masalan, *fan byan* (*fan* – usul, *byan* – qulay, oddiy, mos keluvchi) so‘zi – *upaya* so‘zining tarjimasi, *lun xuey* (*lun* – g‘ildirak, *xuey* – aylanish, aylana) so‘zi – *sansara* so‘zining tarjimasi, *fan nao* (*fan* – og‘ir yuk, zerikarli, *nao* - miya) so‘zi – *klesha* so‘zining tarjimasi sifatida keltirildi. Ba’zi holatlarda esa, hindcha atamalarning tarnskripsiyasidan foydalanildi (*bodxi* – puti, *nirvana* – nepan, *samadxi* – sanmey, *bodxisattva* – putsado, yoki qisqartirilgan pusa, *prajya-paramita* – bajo bolomi yoki bojo bolomido). Lekin, uumumiyl jihatni

oladigan bo'lsak, atamalarning tarjimasiga katta ahamiyat berildi [8].

Kumarajiva bir qator fundamental falsafiy traktatlarni birinchi bo'lib xitoy tiliga tarjima qildi, jumladan, uning tomonidan tarjima qilingan *madhyamaka* (*shunyavada*) maktabining falsafiy traktati Xitoyda buddaviylik rivojlanishining yangi yo'nalishiga asos soldi [9].

Kumarajiva tomonidan ishlab chiqilgan tarjimonlik tamoyillari keyinchalik uning ko'psonli izdoshlarining – Bodxiruchi, Pramartxi, Dxarmagupti va boshqalarning asarlarida keng qo'llanildi va yanada rivojlantirildi.

## XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ /CONCLUSION)

VII asr o'rtalarida mashhur sayyoh, mutafakkir va tarjimon Syuan-szan yangi tarjimonlik islohotini o'tkazdi. Syuan-szan yigirma yil davomida Hindistonda bo'ldi. U bu vaqtning aksariyat qismini mashhur monastir-universitet Nalandda o'tkazdi. Syuan-szan bu yerda sanskrit tilini o'zlashtirdi va mukammal o'rgandi, keyinchalik hatto sanskrit tilida braxmanlar bilan bahslarda ham ishtirok etdi.

Xitoya qaytgach, Syuan-szan imperator Tay-szun tomonidan yaxshi kutib olindi va imperator unga vazirlik lavozimini taklif qilgan. Syuan-szan imperator topshirig'iga binoan daos falsafiy ta'limotining mashhur asari "Dao-De szin" (Yo'l va oliyhimmatlik qonuni)ni sanskrit tiliga tarjima qildi. Syuan-szan tarjima qilishning mukammal tizimini taklif qildi. Bu vaqtga kelib Xitoy buddaviylik an'analari va aqidalarini

matnlarining to'plami (Tripitaka) shakllanib bo'lgan edi. Shuning uchun Xitoy buddaviylik maktablarining aksariyat qismi Kumarajiva va uning izdoshlari tarjima qilgan matnlarni asosiy aqidalar to'plami sifatida tan olishgan. Syuan-szanning tarjimonlik jasorati va uning xitoycha buddaviylikni hindcha namunada to'g'irlashga intilishi e'tiborsiz qoldirildi, xitoy buddaviylik an'analari unga ehtiyoj sezmadи.

## Adabiyotlar ro'yxati

### (Использованная литература / References)

1. Чжунго Фоцзяо Ши (Хитой Буддийлиги тарихи). Т. 1. Пекин, 1982. – Р.38.
  2. Чжунго Фоцзяо Ши (Хитой Буддийлиги тарихи). Т. 1. Пекин, 1982. – Р.41.
  3. Zürcher, Erik. Buddhism in China: collected papers of Erik Zürcher. Edited by Jonathan Silk. Leiden: Brill, 2013. – Р.27.
  4. Буддизм: история и культура: Сб. ст. / Отв. ред. Ветроградова В.В. - М.: Наука, 1989. – С.98.
  5. Буддизм: история и культура: Сб. ст. / Отв. ред. Ветроградова В.В. - М.: Наука, 1989. – С.100.
  6. Zürcher E. The Buddhist Conquest of China. Vol. 1 - 2, Leiden, 1959.– P.36.
  7. Zürcher, Erik. Buddhism in China: collected papers of Erik Zürcher. Edited by Jonathan Silk. Leiden: Brill, 2013. – Р.58.
  8. Чжунго фоцзяо ши (Хитой Буддийлиги тарихи). Т. 1. Пекин, 1982. – Р.57.
- Чжунго фоцзяо ши (Хитой Буддийлиги тарихи). Т. 1. Пекин, 1982. – Р.61.

